



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI

Toshkent shahrida  
kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma’lumotlar



# Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **85,5** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,7** mingtaga kamaygan yoki **17,1** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **28,6** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023-yilning yanvar-sentabrda **12,4** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,6** % ga ko'p demakdir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2019-2023- yillar 1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



## 2023- yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


## Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.		2023- y.
103 194	Toshkent sh	85 507
9 333	Uchtepa t	7 161
2 628	Bektemir t	2 401
12 635	Yunusobod t	10 180
11 669	Mirzo Ulug'bek t	10 013
8 270	Mirobod t	7 210
7 718	Shayxontohur t	7 786
10 622	Olmazor t	8 272
5 385	Sirg'ali t	4 894
9 051	Yakkasaroy t	7 533
8 426	Yashnabod t	7 434
2 322	Yangihayot t	2 319
13 135	Chilonzor t	10 304

2023- yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **85 507** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **12 376** tani tashkil etdi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Chilonzor tumanida **10 304** tani yoki jamiga nisbatan **12,1 %** ni tashkil etdi.

## 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)\*

Toshkent sh.	28,6
Uchtepa	24,2
Bektemir	41,9
Yunusobod	27,5
Mirzo-Ulug'bek	30,7
Mirobod	47,9
Shayxontohur	21,5
Olmazor	20,8
Sirg'ali	29,8
Yakkasaroy	58,2
Yashnabod	25,3
Yangiheyot	14,0
Chilonzor	37,7

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-oktabr holatiga, birlikda



2023-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **28,6** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan **5,3** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida **57,0** birlik, Mirobod tumanida **47,5** birlik, Bektemir tumanida **40,6** birlik, Chilonzor tumanida **37,5** birlik va Mirzo Ulug'bek tumanida **30,4** birlikka yetdi.


\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

## Eng yuqori ko'rsatkich

Yakkasaroy tumani  
– 57,0 birlik.




## O'rta ko'rsatkich

Sirg'ali tumani  
– 29,4 birlik.



## Eng past ko'rsatkich

Yangiheyot tumani  
– 13,6 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida **57,0** birlik, Mirobod tumanida **47,5** birlik, Bektemir tumanida **40,6** birlik, Chilonzor tumanida **37,5** birlik, Mirzo Ulug'bek tumanida **30,4** birlik, Sirg'ali tumanida **29,4** birlik birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023- yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Yakkasaroy tumani

57,0

Bektemir tumani

40,6

Mirzo-Ulug'bek tumani

30,4

Mirobod tumani

47,5

Chilonzor tumani

37,5

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

## Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

11 289	Toshkent sh	12 376
808	Uchtepa	808
288	Bektemir	308
1 348	Yunusobod	1 437
1 337	Mirzo-Ulug'bek	1 585
916	Mirobod	1 118
1 040	Shayxontohur	1 013
1 035	Olmazor	1 142
647	Sirg'ali	760
965	Yakkasaroy	1 074
1 062	Yashnabod	1 160
386	Yangihayot	534
1 385	Chilonzor	1 437

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Mirzo-Ulug'bek	12,8
Yunusobod	11,6
Chilonzor	11,6
Yashnabod	9,4
Olmazor	9,2
Mirobod	9,0
Yakkasaroy	8,7
Shayxontohur	8,2
Uchtepa	6,5
Sirg'ali	6,1
Yangihayot	4,3
Bektemir	2,5


2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Mirzo Ulug'bek tumani – **12,8 %**, Yunusobod va Chilonzor tumani– **11,6 %**, Yashnabod tumani– **9,4 %**, Olmazor tumani – **9,2 %**, Mirobod tumani – **9,0 %**, Yakkasaroy tumani – **8,7 %**, Shayxontohur tumani– **8,2 %** hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023-yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **4 831** ta, sanoatda **1 131** ta hamda qurilish sohasida **936** ta yangidan tashkil etilgan.


Toshkent shahrining tumanlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Mirzo-Ulug'bek tumanida **1 585** ta, Yunusobod va Chilonzor tumanlarida **1 437** ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida Toshkent shahrida 2019-2023-yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **12 376** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **4 831** (yoki **39,0** %) ta, xizmatlar sohasida – **2 608** (yoki **21,1** %) ta, sanoat sohasida – **1 131** (yoki **9,1** %) ta, qurilish sohasida – **936** (yoki **7,6** %) ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **96** (yoki **0,8** %) tani tashkil etgan.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2023-yilning yanvar-sentabrda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **47,8** % ni tashkil qilib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **0,6** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




## 2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **77,8** % ni, yo'lovchi aylanmasida **77,6** % ni, qurilishda **70,8** % ni, importda **68,2** % ni, chakana savdoda **55,2** %, eksportda **50,3** % ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **30 987,3** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (**4 186,2** mlrd. so'm), Chilonzor tumani (**3 793,6** mlrd. so'm), Yashnobod tumani (**3 256,9** mlrd. so'm), Yakkasaroy tumani (**2 825,6** mlrd. so'm) va Bektemir tumani (**2 685,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Yangihayot tumanida (**1 408,3** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega tumanlar, % da**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2023- yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 35,9 % ni tashkil etdi.




2023- yilning yanvar-sentabrda tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (62,1 %), Yunusobod tumani (59,5 %), Yakkasaroy tumani (43,4 %), Chilonzor tumani (55,0 %), Mirzo-Ulug'bek tumani (42,4 %) va Uchtepa tumani (40,9 %) tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-sentabrda tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Toshkent sh.	18 575,2	70,8
Bektemir	534,8	70,2
Mirzo-Ulug'bek	2 176,3	76,8
Mirobod	2 403,3	66,3
Olmazor	1 287,2	68,4
Sirg'ali	983,7	85,0
Uchtepa	825,2	68,8
Chilonzor	1 868,8	75,0
Shayxontohur	1 486,5	62,3
Yunusobod	2 439,4	59,6
Yakkasaroy	2 049,5	74,3
Yangihayot	908,1	74,6
Yashnobod	1 612,4	88,8


2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **18 575,2** mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **70,8** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **106,4** % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Yunusobod (**2 439,4** mlrd. so'm), Mirobod (**2 403,3** mlrd. so'm), Mirzo-Ulug'bek (**2 176,3** mlrd. so'm), Yakkasaroy (**2 049,5** mlrd. so'm), Chilonzor (**1 868,8** mlrd. so'm), Yashnobod (**1 612,4** mlrd. so'm) hamda Shayxontohur (**1 468,5** mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

hajmi, mlrd. so'mda   
 ulushi, % da

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **19 603,8** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **41,1 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **97,6 %** ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Yunusobod (**2 821,8** mlrd. so'm), Olmazor (**2 530,9** mlrd. so'm), Yakkasaroy (**2 370,8** mlrd. so'm), Chilonzor (**2 184,3** mlrd. so'm), Mirzo-Ulug'bek (**1 587,1** mlrd. so'm), Yashnobod (**1 461,7** mlrd. so'm), Shayxontoxur (**1 355,6** mlrd. so'm) hamda Uchtepa (**1 330,6** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



## 2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **29 570,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **55,2 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **102,7 %** ni tashkil qildi.

## 2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Toshkent sh.	29570,4	55,2
Uchtepa	3 731,3	81,6
Bektemir	1 563,8	82,3
Yunusobod	4 196,2	67,3
Mirzo-Ulug'bek	1 870,9	45,2
Mirobod	1 714,5	39,1
Shayxontohur	2 090,5	39,7
Olmazor	2 416,6	55,5
Sirg'ali	1 350,8	46,1
Yakkasaroy	2 803,5	56,2
Yashnobod	2 474,8	55,4
Yangihayot	377,7	47,7
Chilonzor	4 979,7	52,2

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Chilonzor (**4 979,7** mlrd. so'm), Yunusobod (**4 196,2** mlrd. so'm), Uchtepa (**3 731,3** mlrd. so'm), Yakkasaroy (**2 803,5** mlrd. so'm), Olmazor (**2 416,6** mlrd. so'm), Shayxontohur (**2 090,5** mlrd. so'm) va Mirzo-Ulug'bek (**1 870,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## 2018 va 2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrda tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **49 602,2** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **37,3 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **106,8 %** ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Yunusobod (**6 295,1** mlrd. so'm), Mirzo-Ulug'bek (**5 987,2** mlrd. so'm), Yashnobod (**5 538,4** mlrd. so'm), Mirobod (**5 091,1** mlrd. so'm), Olmazor (**4 428,5** mlrd. so'm), Shayxontohur (**4 177,0** mlrd. so'm) va Chilonzor (**3 740,5** mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari  
(yanvar-sentabr oylarida)

19 118,8	Savdo xizmatlari	65,1
6 928,5	Transport xizmatlari	54,2
1 340,3	Shaxsiy xizmatlar	96,6
3 695,1	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	61,0
2 958,9	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	68,1
4 267,9	Boshqa xizmatlar	56,9
406,8	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	70,0
1 469,3	Ijara xizmatlari	83,3
4 789,2	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	32,3
1 346,0	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	48,6
1 302,3	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	20,7
1 054,2	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	36,2
925,0	Moliyaviy xizmatlar	2,2

*Hajmi, mlrd. so'mda*

*Ulushi, foizda*


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **38,5 % (19 118,8 mlrd. so'm)**, transport xizmatlarida – **14,0 % (6 928,5 mlrd. so'm)**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **9,7 % (7 789,2 mlrd. so'm)** hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **7,4 % (3 695,1 mlrd. so'm)**ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi kompyuter va maishiy tavarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda **0,8 % (406,8 mlrd so'm)** kuzatildi.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mln. AQSH dol.

Ulushi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Toshkent sh.	892,7	24,3
Uchtepa	49,0	50,3
Bektemir	28,9	47,1
Yunusobod	67,6	19,3
Mirzo-Ulug'bek	59,5	48,5
Mirobod	48,6	6,5
Shayxontohur	79,7	19,0
Olmazor	92,8	51,5
Sirg'ali	52,2	17,8
Yakkasaroy	90,3	15,3
Yashnobod	109,8	34,4
Yangihayot	37,0	34,4
Chilonzor	94,8	99,5

hajmi, mln. AQSH dollar


ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **892,7** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **24,3** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrda tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Olmazor tumanida – **51,5** %, Uchtepa tumanida – **50,3** %, Mirzo-Ulug'bek tumanida – **48,5** %, Bektemir tumanida – **47,1** %, Yashnobod va Yangihayot tumanida – **34,4** %, Chilonzor tumanida – **29,6** %,ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Mirobod tumanida – **6,5** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **6 380,9** million AQSH dollarini yoki jami importning **47,2** % ini tashkil etdi.

## 2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa tumanida – **68,2** %, Yakkasaroy tumanida – **59,9** %, Shayxontoxur tumanida – **57,3** %, Olmazor tumanida – **55,3** %, Yashnobod tumanida – **48,0** %, Mirobod tumanida – **46,8** %, hamda Bektemir tumanida **46,0** % ni tashkil etdi.


Toshkent sh	47,2
Uchtepa	68,2
Yakkasaroy	59,9
Shayxontohur	57,3
Olmazor	55,3
Yashnobod	48,0
Mirobod	46,8
Bektemir	46,0
Sirg'ali	45,6
Yangihayot	43,3
Chilonzor	39,4
Mirzo-Ulug'bek	39,3
Yunusobod	36,0
	10,3

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk  
tashishda**

2023- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **41,7 %** ni tashkil etdi. 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,1 %** ni tashkil qildi.




**Yuk  
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **47,6 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **138,2 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi  
tashishda**

2023-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **77,8 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,3 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi  
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **77,6 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **96,6 %** ni tashkil qildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 4 348 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 1 444 (33,2 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 2 445 (56,2 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 459 (10,6 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) xizmatlar sohasida – 41,7 % (1 814 ta), savdoda – 36,9 % (1 605 ta), sanoatda – 14,7 % (641 ta), qurilishda – 6,2 % (268 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 0,5 % (20 ta)ni tashkil etdi.

2023- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da





# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2023-yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

370	Uchtepa	8,5
132	Bektemir	3,0
515	Yunusobod	11,8
499	Mirzo-Ulug'bek	11,5
380	Mirobod	8,7
370	Shayxontohur	8,5
431	Olmazor	9,9
241	Sirg'ali	5,5
432	Yakkasaroy	9,9
361	Yashnobod	8,3
507	Chilonzor	11,7
110	Yangihayot	2,5


Soni, birlikda (ta)

Ulushi, foizda

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Yunusobod (**515** ta), Chilonzor (**507** ta), Mirzo-Ulug'bek (**499** ta), Yakkasaroy (**432** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning III choragida **741** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragiga kelib esa **1 444** taga yetgan yoki 2018-yilning III choragiga nisbatan **703** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilda **2 351** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-sentabrida **2 445** ta yoki **94** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **329** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib **459** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan **130** taga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2018-yilning III choragida **1 318** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragiga kelib esa **1 402** taga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **84** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2018-yilning III choragida **1 762** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragida **1 956** ta yoki **194** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2018-yilning III choragida **341** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **437** tani tashkil etib, **96** taga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning III choragida **21,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **33,2** % ga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **11,5** % birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilda **68,7** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning III choragida **56,2** % yoki **12,5** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018-yilda **9,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich **10,6** % ga yetgan yoki **1,0** % ga ko'paygan.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da**




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning III choragida **38,5 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **36,9 %** ga yetgan yoki 2018-yilning III choragida nisbatan **1,6 %** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning III choragida **51,5 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-sentabrida **51,5 %** yoki o'zgarishsiz qolgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018-yilning III choragida **10,0 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **11,5 %** yoki **1,5 %** birlikka oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **43,6 %** ni, savdoda – **37,0 %** ni, sanoatda – **13,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **40,4 %** ni, savdoda – **34,7 %** ni, sanoatda – **15,2 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **42,5 %** ni, savdoda – **33,8 %** ni, sanoatda – **15,3 %** ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **41,6** % ni, savdoda – **36,5** % ni, sanoatda – **15,2** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **42,0** % ni, savdoda – **37,3** % ni, sanoatda – **14,0** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **39,4** % ni, savdoda – **37,3** % ni, sanoatda – **18,1** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	41,7	42,5	15,8
<b>Band bo'lganlar soni</b>	23,6	66,8	9,6
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	32,9	60,7	6,4
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	22,2	70,7	7,1
<b>Raqobat muhiti</b>	31,4	62,6	6,0


	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	43,9	50,7	5,5
<b>Band bo'lganlar soni</b>	22,9	73,4	3,8
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	28,9	67,3	3,7
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	24,1	71,6	4,3
<b>Raqobat muhiti</b>	29,5	66,2	4,3

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli




# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli